

**MEDIASAVODXONLIKNI OSHIRISH ORQALI TANQIDIY TAFAKKURNI
SHAKLLANTIRISH USULLARI***Qayimova Sevara Dilshod qizi**O'zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi**sevaraqayimova004@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mediasavodxonlikning dastlabki tushunchalari, axborot olamidagi o'rni tahlil qilinadi va mediasavodxonlik tanqidiy tafakkurni shakllantirishning asosiy omillaridan biri sifatida qo'llaniladigan amaliy metodlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida axborotni qabul qilish, tahlil qilish, baholash kabi zarur ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berib o'tiladi.

Kalit so'zlar: axborot va media savodxonlik, kiberhujum, manipulyativ xabarlar, CRAAP testi, SIFT usuli, Prebunking va Debunking amaliyoti.

Аннотация: В данной статье анализируются исходные представления о медиаграмотности, её роль в информационном мире, а также рассматриваются практические методы развития медиаграмотности как одного из основных факторов формирования критического мышления. В ходе исследования даются рекомендации по развитию таких необходимых навыков, как получение, анализ и оценка информации.

Ключевые слова: информационная и медиаграмотность, кибербуллинг, манипулятивные сообщения, тест CRAAP, метод SIFT, практика Prebunking и debunking.

Annotation: This article analyzes the initial ideas about media literacy, its role in the information world, and also examines practical methods for developing media literacy as one of the main factors in the formation of critical thinking. The study provides recommendations for developing such essential skills as obtaining, analyzing and evaluating information.

Key words: information and media literacy, cyberbullying, manipulative messages, CRAAP test, SIFT method, Prebunking and debunking practice.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonida axborot oqimining tezkorligi, katta hajmliligi va foydalanuvchilarga bo'lgan ta'sir kuchi keskin oshib bormoqda. Bugun dunyo aholisi o'sishda davom etgani sari internet foydalanuvchilari soni ham oshib bormoqda. 2025-yil aprel oyidagi statistik ma'lumotlarga qaraganda butun dunyo aholisining 68,7 foizi ijtimoiy taqmoqlardan foydalanadi. Bu shuni anglatadiki, o'tgan yilning shu davridan boshlab ijtimoiy tarmoqlar har soniyada o'rtacha foydalanuvchilar soni 7,6 %ga o'sdi.¹

¹ <https://datareportal.com> "Digital around the world"



Buning natijasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish inson kundalik hayotiga chuqur kirib bordi va natijada axborot almashish jarayoni orqali, jamoatchilik fikrini noto'g'ri shakllantirish, ijtimoiy qadriyatlarni o'zgartirish, turli mafkuraviy ta'sirlarni tarqatishning asosiy vositasiga aylanib qoldi. Aynan jamoatchilik orasida keng foydalaniladigan tarmoqlar (telegram, instagram, whatsapp) orqali shaxsiy manfaat yo'lida turli ko'rinishdagi axborotlar tarqatish, foydalanuvchilarni manipulyatsiya qilish, ularni yolg'on axborot tarqatib unga ishonitirish, fikrni chalg'itish kabi holatlar anchagina ko'paygan. Turli yashirin jinoiy guruhlar diniy ekstremistik, terroristik tashkilotlariga a'zolarni ko'paytirish maqsadida ijtimoiy tarmoqlar orqali manbalar, nashidalar tarqatib fuqarolarni aldov yo'li bilan olib ketishmoqda. Bundan tashqari xakerlar tomonidan uyushtirilayotgan hujumlardan jabrlanuvchilar soni ham kundan-kun ortib bormoqda. Dunyo bo'yicha har kuni taxminan 600 million kiberhujum uyushtiriladi. Ular orasida nafaqat fuqarolar, balki, davlat tashkilotlari ham o'lja sifatida olinadi. Mikro-moliya tashkilotlari, kichik ma'lumotlar bazalari, to'lov dasturlari, xayriya tashkilotlari, shuningdek, mahalliy brendlar nomi ostida uyushtiriladigan soxta havolali xabarlar ham misol qilib aytishimiz mumkin. Foydalanuvchilar asossiz mish-mishlarga ishonishi natijasida yolg'on va xakerlar tomonidan yuborilgan xabarlarini o'zlari bilmagan holda tarqatishmoqda.

Shu bois, bugungi kunga kelib mediasavodxonlikni oshirish va tanqidiy tafakkurni shakllantirish masalasi dolzarb muammo sifatida namoyon etildi. So'nggi yillarda yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari qaramlik, virtual muloqotga berilib ketish va axborotni tanqidiy tahlil qilmasdan qabul qilish holatlari sezilarli oshdi. Bu esa manipulyativ xabarlar va yolg'on ma'lumotlarning tez tarqalishiga, yoshlarning ijtimoiy hayotga nisbatan passivlashuviga hamda ularning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, mediasavodlik ko'nikmalarini shakllantirish orqali inson fikrlash doirasini kengaytirish bilan birga axborot qabul qilishda xushyorlikni oshiradi, ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi va jamiyatda ham axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugun jamiyatda tarqalayotgan axborotlarning nima uchun va qanday maqsadda uzatilayotganligini bilish kundalik zaruriyatga aylandi. Ayni vaqtda axborot muhitni anglashda mediasavodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi. YUNESKOning media va axborot savodxonligi to'g'risidagi nashrlarida e'lon qilinishicha, mediasavodxon va tanqidiy tafakkurga ega insonlar tegishli texnologiyalardan erkin foydalana olishi, shuningdek, axborot va mediakontentlarni yaratish, qabul qilish, to'g'ri baholay olish, tarqatish ko'nikmalariga ega bo'lishadi. Bundan tashqari fuqarolar ommaviy axborot vositalaridan foydalanish bo'yicha huquq-majburiyatlarini ham to'liq anglay oladi. Xabarlarini qabul qilayotganda manbaning kim tomonidan yuborilgani, mazmuni, ahamiyatini tahlil qilishni boshlaydilar. Bu bevosita manipulyativ ta'sir doirasidan o'zlarini himoya qilishlariga yordam beradi. Foydalanuvchilar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanar ekan, axborot qabul qilish bilan birga, albatta, yaratish huquqiga ham ega. Shaxsiy yaratilgan axborotlarni o'z auditoriyalariga ulashishadi va keng ko'lamda muloqot qilishadi.

Mediasavodxonlik – ommaviy axborot vositalari orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko'nikmalarini, turli axborotlarni qabul qilgandan keyin ham har qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish, axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadda uzatilyapti, o'zida kimning manfaatlarini aks ettiryapti degan tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladi.² Ko'rinib turibdiki, mediasavodxonlik uch asosiy ko'nikmalarni tashkil etadi:

² <https://uz.wikipedia.org/wiki/Mediasavodxonlik>

yaratish, foydalanish, tushunish. Shaxslar turli axborot manbalaridan foydalangan holda, o'z qarashlaridan kelib chiqib yangi media mahsulot yaratadi; OAVda mavjud resurslarni izlash, saralash, yuborish, tahrirlash kabi jarayonlardan foydalanishadi; Keyingida ular qabul qilgan ma'lumotlarni tanqidiy yondashuvlari orqali tahlil qilishadi.

Tanqidiy fikrlash – o'z-o'zini boshqaradigan, tarbiyalaydigan, nazorat qiladigan va o'zini o'zi to'g'irlaydigan fikrlash shaklidir.³ Bu yondashuv orqali inson samarali muloqotga ega bo'ladi, faqat axborot qabul qilishdagina emas, balki, shaxsiy rivojlanishda ham bu samarali hisoblanadi. Jumladan, qaror qabul qilishda aniqlik va to'g'rilik, munosabat bildirishda qat'iylik va isbotlangan fikr berish, har qanday ilmiy nazariyalarni tez va oson tushunish, auditoriyani boshqarishda to'g'ri yondashish, ko'zlangan maqsadga natijali erishish.

Media deganda ko'z oldimizga OAV, ya'ni, gazeta, radio, televideniya, internet keladi. Mediakontent bundan farqli o'laroq tarmoqlarini o'z ichiga oladi. Kundalik yangiliklar, turli xil reklama e'lonlari, online o'yinlar va filmlar, umumiy olganda audiovizual kontentlarni aytishim mumkin. Ushbu nazariyalardan kelob chiqib shuni aytish mumkinki, mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash bir-biri bilan uzviy bog'liq. Mediasavodxonlik shaxsga axborotni izlash, tahlil qilish, to'g'ri talqin etish va undan oqilona foydalanish imkonini beruvchi asosiy kompetensiya bo'lsa, tanqidiy fikrlash ushbu jarayonni chuqurroq anglash, mantiqiy asoslash va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini shakllantiradi. Masalan, biror yangilik yoki maqolani o'qigan shaxs mediasavod ko'nikmalari yordamida uni tez va to'g'ri qabul qiladi, tanqidiy tafakkuri orqali esa axborotning manbasi, tarqatilishiga ko'ra maqsadi, ma'lumotning haqqoniyligi va uning ijtimoiy ta'sirini baholashi ham mumkin bo'ladi. Bu esa shaxsga noto'g'ri yoki manipulyativ axborotni bilib olishi, yolg'on xabarlardan saqlanishiga imkonini beradi.

Mediasavodxonlik va tanqidiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar va metodlar

1. **CRAAP testi** – manbalarni tanqidiy tahlil qilish uchun samarali vosita bo'lib, asosan oliy ta'limda kutubxona va talabalar orasida keng qo'llaniladi. CRAAP bu Currency, Relevance, Authority, Accuracy va Purpose so'zlarining qisqartmasi. Ma'lumki, ijtimoiy tarmoqlarga kelib tushayotgan axborotlar miqdori anchagina katta. Bu esa ularning ishonchlik va haqiqiylik darajasini kamaytiradi. Bundan holatda foydalanuvchilar soxta axborotlar tuzog'iga tushib qolishlari asosli. Shuning uchun Kaliforniya shtat universiteti kutubxonachilari tomonidan bu test tizimi tuzildi. Endilikda, foydalanuvchilar o'zlari muhim deb bilgan axborotlarni erkin tahlil qilishi mumkin. Xabar qachon e'lon qilingani, qayta tahrirlangani, maqsadli auditoriya kimlarni tashkil etishi, imloviy va uslubiy xatoliklari, e'lon qilinishda ko'zlangan maqsadi, hattoki, muallif yoki e'lon qilgan sayt haqida ham asosiy ma'lumotlar ko'rib chiqish imkoniyatlari mavjud.

2. **SIFT usuli** – ma'lumki, barcha veb-saytlar ham ishonchli bo'lavermaydi. Noqonuniy tashkilotlar tomonidan tuzilgan veb-sahifalar yoki ta'qiqlangan reklamalar foydalanuvchilar hayotini xavfga qo'yishi muqarrar. Buning oldini olish uchun Vashington shtat universiteti xodimi, raqamli savodxonlik bo'yicha mutaxassis Mayk Kolflid tomonidan manbalarni to'g'ri baholovchi SIFT usuli joriy qilindi. Bu orqali soxta va manipulyativ xabarlar, axborotlar tez va samarali aniqlanadi. Insonlar bu usuldan qanchalik ko'p foydalanishsa ularda tanqidiy qarashlar yanada yaxshiroq rivojlanadi, manipulyativ axborotlarga qarshi immunitet hosil bo'ladi,

³ https://uz.wikipedia.org/wiki/Tanqidiy_fikrlash

jamoatchilikda mediasavodxonlik oshadi. SIFT – stop, investigate the source, find better coverage, trace claims quotes and media to the original context so‘zlarining kengaytmasi. Tahlil qiladigan bo‘lsak STOP – birinchi o‘rinda manbaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishonmasdan, to‘xtab u bilan batafsil tanishib chiqish lozim. INVESTIGATE THE SOURCE – manbani joylashtiruvchi sayt haqida batafsil ma‘lumot olish zarur. Bu uning ishonchliligini tasdiqlash, rasmiy yoki norasmiyligini tekshirish uchun kerak. FIND BETTER COVERAGE – odatda e‘lon qilingan xabarlar uch va undan ortiq nashrlarda e‘lon qilingan, shuningdek, davlat ro‘yxatidan o‘tgan saytlar bo‘lsa uning haqiqiylik darajasi ortadi. TRACE CLAIMS QUOTES AND MEDIA TO THE ORIGINAL CONTEXT – taqdim etilgan materialni asl manbasini aniqlash orqali ham tekshirish mumkin. Bunda birinchi e‘lon qilingan ommaviy axborot vositasini aniqlash lozim. To‘g‘ri, bu biroz qiyinchilik tug‘dirishi mumkin, biroq bu samarali usul hisoblanadi.

3. **Prebunking va Debunking amaliyoti** – dunyo bo‘ylab tarqalib borayotgan fake xabarlarning bugungi kunga kelib soni sezilarli darajada ortdi. Shu sababli dunyoda samarali metodlar ishlab chiqilmoqda. Ulardan biri prebunking va debunking amaliyoti. U cheksiz internet olamida fake, tasdiqlanmagan va manipulyativ axborotlarni tarqalishini oldini oladi, aholida xushyorlikni oshiradi, ma‘lumotlarni tanqidiy tahlil qilishlariga yordam beradi, Ayniqsa, amaliyotda ko‘pincha kibertahdidlarda bu amaliyot qo‘llaniladi. Tanqidiy tafakkur va mediasavodxon insonda shubhali ko‘ringan har qanday havola, xabar, manbaa, ma‘lumot faktcheker tizimlari orqali tekshiriladi va natijaga qarab xulosalanadi. Hattoki, bu usul orqali chalg‘ituvchi xabarlarni ham anglay olish osonlashadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida” gi qonuniga muvofiq axborot axborotlashtirish jarayonida qo‘llanuvchi axborot resursi sanaladi.⁴ Bugungi kunda globallashuv jarayonida ishtirok etayotgan har bir davlatda axborot xuruji xavfi sezilib turadi. **Axborot xuruji** – axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar yoki boshqa kommunikatsiya kanallari orqali odamlarning ongiga maqsadli ravishda ta‘sir o‘tkazish, ularning fikrlash tarzini, qaror qabul qilish jarayonini yoki xatti-harakatlarini o‘zgartirishga qaratilgan manipulyativ jarayondir. Uning oqibatlar shundaki, ijtimoiy barqarorlikka putur yetadi, jamoatchilik orasida vahima va ishonchsizlik yuzaga keladi, hatto, davlat tashkilotlari va shaxslar obro‘sizlantiriladi. G‘arazli niyatda tashkil etilgan noqonuniy kuchlar o‘z maqsadlarini ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatadi. Bundan anglash mumkinki, birinchi navbatda ular yoshlarning ongiga ta‘sir o‘tkazishadi. Virtual olamda ular virus kabi izg‘ib o‘lja izlashadi va ma‘naviy sust, ishonuvchan, har qanday jarayonlarga oddiy hol deb qaraydiganlarni “saralab” olishadi va ko‘proq online ravishda ular bilan muloqot qilib dunyoqarashlarini butkul o‘zgartirishadi. Ularning bu kabu tuzoqlariga tushmaslik hamda oldini olish uchun barchani faollikka chorlash, ogoh etish, o‘quv dargohlarida o‘quvchi yoshlarga maxsus tushuntirishlar berib boorishni kundalik zaruriyatga aylantirish lozim.

O‘rganilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mediasavodxon shaxsning tanqidiy tafakkuri anchagina rivojlangan bo‘ladi. Foydalanuvchi sifatida axborotni izlash, saralash va to‘g‘ri tahlil qilish jarayonini amalga oshiradi, to‘plangan natijalar yuzasidam mustaqil xulosa chiqara oladi. Boshqa shaxslarga nisbatan anchagina xushyor bo‘ladi, xabarlarni bir ko‘rishda farqlay oladi, shubha ostiga olib ularni tahlil qiladi. Yolg‘on va manipulyativ axborotlardan o‘z-o‘zini himoya qiladi va yon atrofidagilarni ham himoyalashga chorlaydi. Tanqidiy tafakkur

⁴ Z.Sh.Nurmamatov. “Texnologik ta‘lim” kafedra katta o‘qituvchisi p.f.f.d. Media savodxonlik va axborot madaniyati o‘quv – uslubiy majmua. Termiz – 2023.

mediasavodxonlikning amaliy ifodasi hisoblanadi ya'ni uni chuqurlashtiradi. Inson qabul qilgan ma'lumotlarda asosli dalillarini izlaydi, ko'plab savollar berishni boshlaydi. Natijada mediasavodxonlik ko'nikmasi amaliy darajadi yaxshi rivojlanadi. Xabarlarini tarqatoyganda ham ko'r-ko'rona emas, ijtimoiy oqibatlarini o'ylagan tahlil jarayonidan o'tkazgan holda to'g'ri qatlamga yuboradi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqotlar yakunida shuni aytish mumkinki, mediasavodxonlikni oshirish tanqidiy tafakkurni shakllantirishning eng samarali yo'llaridan biri ekanligi nazariy metodlar orqali keltirildi. Joriy davrda axborot oqimining kengayishi natijada ijtimoiy tarmoqlarda soxta va manipulyativ xabarlar keng tarqalmoqda. Bunday sharoitda insonning axborotga ongli yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda mediasavod shaxslarni ko'paytirish, ayniqsa yoshlar orasida ko'proq faollashtirish, ularni hushyorlikka tortish borasida keng ko'lamli ishlar qilish lozim. Insonlar ijtimoiy tarmoqlarda faqat iste'molchisi emas, uni tahlil qiluvchi, manbalarni solishtiruvchi, oqibatlarini baholovchi faol ijtimoiy subyekt sifatida shakllanadi. Shunday ekan tanqidiy yondashuvni ularning odatiga aylantirish muhim masaladir.

Nishonga oluvchilar asosan insonlarning his-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazish orqali tezroq "natijaga" erishadi. Masalan, kompaniyalar mahsulot yoki xizmatlarini sotish uchun reklama va PR vositalaridan foydalangan holda auditoriyani manipulyatsiya qilishlari mumkin. Qanday deysizmi? Odatda reklama qilinayotgan katta chegirmalar va aksiyalari orqali bo'ladi. Ularning "foydani qo'ldan boy bermang!", "Faqat siz uchun!" kabi iboralari auditoriyai qiziqitirmay qo'ymaydi. Yoinki, saylovlar, siyosiy kompaniyalar va targ'ibot ishlari orqali aholining ovozini olish uchun manipulyatsiya texnikalari qo'llaniladi. Dunyoda saylovlar oldidan ko'p va'dalar berish holatlarini ham kiritishimiz mumkin.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari dunyo bo'ylab ro'y berayotgan eng muhim siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy voqealar, amalga oshirilayotgan islohotlar hamda qabul qilinayotgan qonunlarni keng yoritish orqali davlat va jamiyat o'rtasida o'ziga xos ko'prik vazifasini bajarishi bilan birga, axborot yetkazuvchi, jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi va ijtimoiy muammolarga oydinlik kirituvchi asosiy vosita sifatida ham muhimdir. Xususan mamlakatimizda axborotdan hammaning foydalanishi mumkinligi, uning o'z vaqtida taqdim etilishi va ishonchliligi, oshkoralliligi va shaffofligini ta'minlash doimiy nazoratga olingan. Mediasavodxonlik tanqidiy tafakkurning ajralmas qismi va jamiyatda axborot madaniyatini yuksaltirishning muhim shakli hisonlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Andersson L. The Role of Critical Thinking in Media and Information Literacy. – Sweden: Linnaeus University Press, 2021.
2. Abdurahmonova Z.K. Mediasavodxonlik va u bilan bog'liq bo'lgan asosiy tushunchalar // Yangi O'zbekiston pedagoglari axborotnomasi. – Toshkent, 2023. – №4. – B. 45–50.
3. Digital around the world // Datareportal: Global Digital Insights. – <https://datareportal.com/global-digital-overview>
4. Evaluating Sources: The CRAAP Test // Benedictine University Library. <https://ben.edu/library/>
5. Mediasavodxonlik // Vikipediya
6. Mediasavodxonlik va u nima uchun kerak? // Hurriyat.uz – <https://hurriyat.uz>

7. Prebunking vs. Debunking Interventions: Comparative Analysis // CyberPeace Institute. – <https://www.cyberpeace.org>
8. The SIFT Method // University of Chicago Library. – <https://www.lib.uchicago.edu>

